

CHET EL TAJRIBASINI O‘ZLASHTIRISHDA MILLIY TA’LIM AN’ANALARINI SAQLAB QOLISH MUAMMOSI.

Naziraliyeva Durdonaxon Zoirjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fakulteti Davolash ishi

25-08-gurux talabasi

durdonaxonnaziraliyeva@gmail.com +998(90)621 00 16

Ilmiy raxbar: Aripova Nargiza Kazbekovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonida chet el ta’lim tizimlarining ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirish bilan bir qatorda, milliy ta’lim an’analarini saqlab qolish muammosi keng tahlil qilingan. Bugungi kunda xalqaro standartlarga asoslangan ta’lim tizimlarini joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, reyting tizimi, kredit-modul, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish kabi jarayonlar O‘zbekiston ta’lim tizimida ham faol amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bu yangiliklarning milliy ta’lim qadriyatlariga ta’siri, xalq pedagogikasining unutilib borayotgani, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi an’anaviy ma’naviy bog‘liqlikning susayishi kabi holatlar ham muhim masala sifatida ko‘tarilmoqda. Maqolada ushbu jarayonni tahlil qilish, xorijiy ilg‘or tajribalarni tanqidiy yondashuv asosida o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsadi - chet el ta’lim tajribalarini o‘zlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish bilan birga, milliy ta’lim an’analarini, xalq pedagogikasiga xos g‘oyalarni, tarbiyaviy tamoyillarni saqlab qolish va ularni zamonaviy sharoitda rivojlantirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil, kuzatish, pedagogik tahlil va tarixiy yondashuv usullaridan foydalanilgan. Natijalarga ko‘ra, xorijiy tajribalarni to‘liq ko‘chirib olish emas, balki ularni milliy qadriyatlar, urf-odatlar va mahalliy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish eng samarali yo‘l ekanligi aniqlangan. Milliy ta’lim an’analarini zamonaviy metodlar bilan integratsiya qilish yosh avlodda vatanparvarlik, milliy o‘zlik, ma’naviy barkamollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida

shuni ta'kidlash mumkinki, chet el tajribalarini o'zlashtirishda milliy ta'lim an'alarini saqlab qolish - nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki milliy identitetni mustahkamlash, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularni milliy g'oya va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim omilidir.

Kalit so'zlar. Milliy ta'lim an'analari, chet el tajribasi, ta'lim tizimi, innovatsion yondashuvlar, pedagogik qadriyatlar, globallashuv, ta'lim sifati, milliy identitet.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализирована проблема сохранения национальных образовательных традиций наряду с освоением передового опыта зарубежных систем образования в условиях глобализации. В настоящее время в системе образования Узбекистана активно реализуются процессы внедрения образовательных систем, основанных на международных стандартах, современных педагогических технологий, рейтинговой системы, кредитно-модульного обучения и цифровой образовательной среды. Вместе с тем, важное значение приобретают вопросы влияния этих новшеств на национальные образовательные ценности, постепенное забвение народной педагогики, а также ослабление традиционной духовной связи между преподавателем и студентом. В статье обоснована необходимость анализа данных процессов, критического изучения зарубежного передового опыта и его адаптации к национальной системе образования. Цель исследования определить пути повышения качества образования через освоение зарубежного опыта, сохраняя при этом национальные образовательные традиции, идеи, присущие народной педагогике, и воспитательные принципы, а также развивая их в современных условиях. В процессе исследования использовались методы сравнительного анализа, наблюдения, педагогического анализа и исторического подхода. Результаты показали, что наиболее эффективным является не полное копирование зарубежного опыта, а его гармоничное сочетание с национальными ценностями, обычаями и местными потребностями. Интеграция национальных образовательных традиций с современными методами способствует формированию у молодёжи патриотизма, национального самосознания и

духовной зрелости. В заключение подчеркнуто, что сохранение национальных образовательных традиций при заимствовании зарубежного опыта является не только важным фактором повышения качества образования, но и укрепления национальной идентичности, обогащения духовного мировоззрения молодёжи и воспитания её в духе преданности национальным идеям и ценностям.

Ключевые слова. национальные образовательные традиции, зарубежный опыт, система образования, инновационные подходы, педагогические ценности, глобализация, качество образования, национальная идентичность.

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the issue of preserving national educational traditions while assimilating the advanced experiences of foreign education systems in the context of globalization. Today, processes such as implementing education systems based on international standards, introducing modern pedagogical technologies, rating systems, credit-modular approaches, and developing a digital learning environment are actively carried out in Uzbekistan's education system. At the same time, the influence of these innovations on national educational values, the gradual loss of folk pedagogy, and the weakening of the traditional moral connection between teachers and students have become important issues. The article substantiates the necessity of analyzing these processes, critically studying foreign best practices, and adapting them to the national education system. The purpose of the study is to identify ways to improve the quality of education through the adoption of international experiences while preserving and developing national educational traditions, folk pedagogical ideas, and educational principles in modern conditions. The research employs methods such as comparative analysis, observation, pedagogical analysis, and historical approach. The results show that the most effective way is not to copy foreign practices entirely, but to harmonize them with national values, customs, and local needs. Integrating national educational traditions with modern methods contributes to fostering patriotism, national identity, and spiritual maturity among the younger generation. In conclusion, it can be emphasized that preserving national educational traditions while adopting foreign experiences is not only a means of

improving education quality, but also a crucial factor in strengthening national identity, enriching the spiritual worldview of youth, and nurturing them in the spirit of loyalty to national ideas and values.

Keywords. National educational traditions, foreign experience, education system, innovative approaches, pedagogical values, globalization, education quality, national identity.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlat o'zining ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga intilmoqda. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimi ham dunyo miqyosida e'tirof etilgan ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlariga kirish yo'lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq bu jarayon davomida milliy ta'lim an'analari, xalq pedagogikasi, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan tarbiyaviy qadriyatlari saqlanib qolishi va yangi sharoitda rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy ta'lim an'analari bu nafaqat o'qitish uslublari, balki milliy mentalitet, xalqning dunyoqarashi, ma'naviy merosi va tarbiya tizimining asosi hisoblanadi. Agar xorijiy tajribalar tanqidiy tahlil qilinmasdan, to'liq ko'chirib olinsa, bu jarayon milliy ta'lim mazmunining o'ziga xosligini yo'qotish, milliy o'zlikning so'nib borishiga olib keladi. Shu sababli, chet el tajribalarini o'zlashtirishda ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zarur. Bu yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki yosh avlodni milliy g'oya, vatanparvarlik, ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ana shu muammo ya'ni, chet el ta'lim tajribalarini joriy etish jarayonida milliy ta'lim an'alarini saqlab qolish va ularni uyg'unlashtirish masalasi tahlil qilinadi.

Dolzarblik: Bugungi kunda ta'lim tizimining globallashuvi natijasida dunyo mamlakatlari o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik, tajriba almashish va o'zaro integratsiya jarayonlari kuchaymoqda. Xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan

birga, bu jarayon milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy shakllangan an'anaviy yondashuvlari va xalq pedagogikasiga asoslangan qadriyatlarni yo'qotish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim sohasida jahon tajribasiga tayangan holda islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, chet el tajribasini to'liq ko'chirib olish emas, balki uni milliy ehtiyojlar, madaniyat, mentalitet va tarixiy tajriba bilan uyg'unlashtirish zarur. Chunki har bir xalqning ta'lim tizimi uning madaniy merosi, qadriyatlari va tarbiyaviy tamoyillariga tayanadi. Shunday ekan, chet el ta'lim tajribasini o'zlashtirishda milliy ta'lim an'analarini saqlab qolish, ularni yangi sharoitda takomillashtirish va zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaraladi. Bu jarayon milliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini, milliy o'zlik va ma'naviyatning asrab-avaylanishini ta'minlaydi.

Maqsad: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - chet el ta'lim tizimlarining ilg'or tajribalarini o'rganish, ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish hamda bu jarayonda milliy ta'lim an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot orqali milliy qadriyatlarga tayangan holda xorijiy innovatsion yondashuvlarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos ta'lim sifatini ta'minlash bilan birga, o'zbek xalqining tarbiyaviy merosini saqlab qolishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish maqsad qilingan. Shuningdek, maqolada global ta'lim muhitida raqobatbardosh, bilimli va milliy o'zligiga sodiq kadrlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi milliy va xorijiy tajriba uyg'unligini yaratishning samarali yo'llari yoritiladi.

Vazifalar. Mazkur tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi.

1. Xorijiy ta'lim tizimlarining ilg'or tajribalari, ularning afzalliklari va joriy etish mexanizmlarini tahlil qilish.
2. O'zbekiston ta'lim tizimida mavjud milliy ta'lim an'analari, xalq pedagogikasi va tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganish.

3. Chet el tajribalarini o'zlashtirish jarayonida milliy ta'lim an'alariga tahdid soluvchi omillarni aniqlash.
4. Xorijiy innovatsion metod va texnologiyalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish.
5. Milliy qadriyatlarga asoslangan holda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
6. Ta'lim jarayonida milliylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini oshirish hamda yosh avlodda milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi takliflar ishlab chiqish.

Metodlar: Tadqiqot ishida ilmiy izlanishlarning quyidagi usullaridan foydalanildi: Taqqoslama tahlil usuli xorijiy ta'lim tizimlari va O'zbekiston ta'lim tizimi o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, samarali tajribalarni ajratib olish maqsadida qo'llanildi. Tarixiy-pedagogik tahlil usuli milliy ta'lim an'alarining shakllanishi, rivojlanishi va ularning bugungi kunda tutgan o'rni o'rganildi. Kuzatish va suhbat usuli o'qituvchilar, talabalar hamda mutaxassislar bilan olib borilgan muloqotlar orqali xorijiy tajribalarni joriy etishdagi amaliy muammolar tahlil qilindi. Tahliliy umumlashtirish usuli olingan ma'lumotlar, ilmiy manbalar va tajriba natijalarini tahlil qilish hamda ularning asosida umumiy xulosalar chiqarish uchun qo'llanildi. Mazkur usullar orqali tadqiqotning ishonchliligi va amaliy ahamiyati ta'minlandi.

Natijalar: O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, chet el ta'lim tizimlaridagi ilg'or tajribalarni to'liq ko'chirib olish emas, balki ularni milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish eng samarali yo'ldir. Milliy ta'lim an'alarini o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayangan holda shakllangan bo'lib, ularni saqlab qolish ta'lim jarayonida milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi.

1. Xorijiy ta'lim tizimlaridagi innovatsion yondashuvlar (masalan, modul-kredit tizimi, tanqidiy fikrlash metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv) milliy tizimga bosqichma-bosqich joriy etilganda yuqori samara beradi.

2. Milliy ta'lim an'alarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.
3. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy ishlar yosh avlodda vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'naviy barkamollikni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.
4. O'zbekiston tajribasida xorijiy metodlarni mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish natijasida ta'lim sifati oshmoqda, o'qituvchilarning malakasi yuksalmoqda, o'quv jarayonining interfaol usullarga asoslanishi esa o'quvchilar faolligini oshirgan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy ta'lim tizimining o'ziga xos qadriyatlarini saqlab qolgan holda xorijiy tajribalarni uyg'unlashtirish – ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, S. (2020). O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni joriy etish masalalari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
2. Alimov, R. (2018). Milliy pedagogik an'analarni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish. Pedagogika ilmiy jurnali.
3. Karimova, N. (2019). Xorijiy ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va milliy ta'lim qadriyatlarini saqlash. Ilmiy axborotnomalar.
4. UNESCO (2015). Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.
5. Saidov, M. (2021). O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va milliy qadriyatlar uyg'unligi. Ta'lim va innovatsiya.
6. Shamsiev, F. (2017). Ta'limda milliy identitetni saqlash va rivojlantirish. Toshkent: Fan va ta'lim nashriyoti.
7. World Bank. (2018). Education in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Publications.